

**GLOBAL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MILLATLARARO
MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
STRATEGIYALARI**

Djumaniyozova Nasiba Bekmamatovna

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
pedagogika mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Email: nasibaumarbek@icloud.com

+99877 705-40-05

UDK:37:1174:37.01

Annotatsiya: *Mazkur maqolada globallashuv sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalarida millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda baynalminallik tamoyillari asosida talabalarning etnomadaniy kompetensiyasini oshirish strategiyalari va innovatsion pedagogik modellar taklif etilgan.*

Kalit soʻzlar: *Global ta'lim, millatlararo muloqot, madaniyat, bagʻrikenglik, pedagogik strategiya, baynalminallik, etnomadaniy kompetensiya, integratsiya*

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ
МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ
ГЛОБАЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ**

Аннотация: *В данной статье анализируется социально-педагогическая необходимость формирования культуры межнационального общения у студентов высших учебных заведений в условиях глобализации. В исследовании предложены стратегии повышения этнокультурной компетенции студентов на основе принципов интернационализма и инновационных педагогических моделей.*

Ключевые слова: *Глобальное образование, межнациональное общение, культура, толерантность, педагогическая стратегия, интернационализм, этнокультурная компетенция, интеграция.*

**PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR DEVELOPING THE CULTURE OF
INTERETHNIC COMMUNICATION AMONG STUDENTS IN A GLOBAL
EDUCATIONAL ENVIRONMENT**

Abstract: *This article analyzes the socio-pedagogical necessity of forming a culture of interethnic communication among university students in the context of globalization. The study proposes strategies for enhancing students' ethnocultural competence based on the principles of internationalism and innovative pedagogical models.*

Keywords: *Global education, interethnic communication, culture, tolerance, pedagogical strategy, internationalism, ethno-cultural competence, integration.*

ASOSIY QISM

Zamonaviy sivilizatsiyaning rivojlanish bosqichi oliy ta'lim tizimi zimmasiga nafaqat yuqori malakali mutaxassis tayyorlash, balki murakkab ijtimoiy-madaniy muhitda yashashga qodir bo'lgan shaxsni shakllantirish vazifasini yuklamoqda. Global ta'lim muhiti bu bilimlar transferi bilan bir qatorda, turli sivilizatsiyalar va qadriyatlar tizimining o'zaro muloqot maydonidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'kidlanganidek, ta'lim jarayonida millatlararo totuvlik va bag'rikenglik tuyg'usini shakllantirish xalqaro raqobatbardoshlikning ajralmas qismidir.⁷¹ Millatlararo muloqot madaniyati tushunchasi shunchaki xushmuomalalikni emas, balki boshqa millat vakillarining dunyoqarashi, an'analari va qadriyatlarini tushunish va hurmat qilish kompetensiyasini anglatadi. Bugungi kunda talaba-yoshlar o'rtasida ksenofobiya, stereotiplarga berilish yoki madaniy izolyatsiya kabi salbiy holatlarning oldini olish uchun tizimli pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Nazariy jihatdan tahlil etadigan bo'lsak millatlararo muloqot madaniyatining nazariy asoslari ko'p asrlik falsafiy va pedagogik merosga borib taqaladi. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy) asarlarida insonlararo hamjihatlik va ilmning chegarasizligi g'oyasi markaziy o'rin egallagan. Zamonaviy pedagogikada esa ushbu tushuncha "baynalminallik" va "multikulturalizm" tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir. L.N. Gumilevning etnogenez nazariyasiga ko'ra, etnoslar o'rtasidagi muloqot energiyasi jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi.⁷² Pedagogik nuqtayi nazardan, millatlararo muloqot madaniyati quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishini ko'rib chiqamiz.

Birinchi dan kognitiv komponent jarayonini keltirishimiz mumkin. Bu jarayon boshqa xalqlar haqidagi bilimlar va ularning tarixiylik jihatlarini aniq talqin etish deganidir. Bunda turli xalqlar va elatlar haqida ilmiy xulosalar ishlab chiqarish mumkin. Ikkinchi dan emotsional-aksialogik komponent omili. Bu omil boshqa madaniyatlarga nisbatan hurmat va bag'rikenglik tushunchalarini ilmiy tahlil etilishini shakllantiradi. Deylik insonlar nega

⁷¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. PF-5847-son. 08.10.2019.

⁷² Гумилев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. — М.: Айрис-пресс, 2016. — 560 с.

nekbin⁷³ bo‘lishlari, tolerant⁷⁴ tuyg‘ular insonlarga ehtoyojmi yoki zaruriyat omili ekanligini tadqiq etadi. XX asr gumanizm tamoyillari o‘z o‘rnini g‘oyalar va mafkuraviy jarayonga bo‘shatib berayotgan bir pallada bu komponent insoniyatga hurmat va bag‘rikenglik tamoyillarini qadrlashga doimo undab kelgan. Uchunchidan xulq-atvor komponentligi. Mazkur omil insoniyatda konfliktli vaziyatlarda konstruktiv muloqot qila olish malakasini shakllantiradi. Dunyo kuchlilar emas, aksincha mulohazalilar uchun degan g‘oyani targ‘ib etadi.

G‘arb pedagogik tajribasida J.Banks tomonidan ilgari surilgan “Ko‘pmadaniyatli ta‘lim” konsepsiyasi talabalarning turli etnik guruhlariga mansubligini tan olgan holda, umumiy akademik maqsadlarga erishishni ko‘zda tutadi.⁷⁵ O‘zbekistonda esa bu jarayon "Milliy g‘oya va ma‘naviyat asoslari" kontekstida, xalqimizning tarixiy mehmondo‘stlik va bag‘rikenglik an‘analari asosida shakllanadi. O‘zbekistonning o‘ziga xos rivojlanish modeli sharoitida talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni shunchaki pedagogik vazifa emas, balki milliy davlatning barqarorligini ta‘minlovchi strategik ustuvorlik hisoblanadi. O‘zbek xalqining millatlararo muloqot madaniyati sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan "Movarounnahr fenomeni" asosida shakllangan. Buyuk Ipak yo‘li nafaqat tovar ayirboshlash, balki madaniy-ma‘rifiy diffuziya maskani bo‘lganligi sababli, xalqimiz mentalitetida boshqa millat va din vakillariga nisbatan “genetik bag‘rikenglik” shakllangan.⁷⁶

Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi ijtimoiy hamkorlik g‘oyalari, Alisher Navoiyning “Olam ahli, bilingizki, ish emas dushmanlig‘...” deb boshlanuvchi insonparvarlik falsafasi bugungi kundagi pedagogik strategiyalarning ma‘naviy fundamentini tashkil etadi. Bu an‘analar talabalarda biz va ular degan sun‘iy to‘siqlarni bartaraf etishda muhim kognitiv vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy g‘oya kontsepsiyasi doirasida millatlararo totuvlik tamoyili quyidagi ilmiy parametrlar orqali tahlil qilib chiqamiz. Etnomadaniy identifikatsiya va integratsiya balansi nuqtayi nazaridan talaba avvalo o‘z milliy o‘zligini anglashi, so‘ngra umuminsoniy qadriyatlarga integratsiyalashuvi lozim. Bu o‘zlikni yo‘qotmagan holda umumga qo‘shilish formulasidir.⁷⁷ Vatanparvarlik va internatsionalizm uyg‘unligi. Bunda zamonaviy

⁷³ Nekbinlik (optimizm) — bu hayotga, voqea-hodisalarga ijobiy nuqtai nazardan qarash, kelajakka ishonch bilan yondashish va har qanday vaziyatda yaxshilikka umid qilishdir. Fors tilidan olingan bo‘lib, *nek* — "yaxshi", *bin* — "nazar/qarash" ma‘nolarini anglatadi.

⁷⁴ Tolerantlik (lotincha *tolerantia* — sabr-toqat), ya‘ni bag‘rikenglik — o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e‘tiqodlariga nisbatan toqatli bo‘lish, ularni hurmat qilishni anglatadi. Bu tushuncha jamiyatdagi turfa madaniyatlilik, plyuralizm va xilma-xilliklarni tan olish, tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashning asosidir.

⁷⁵ Banks, J. A. *Cultural Diversity and Education: Foundations, Curriculum, and Teaching*. — Routledge, 2015. — 380 p.

⁷⁶ Azizxo‘jayeva N.N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. — Toshkent: "O‘qituvchi", 2006. — 200 b.

⁷⁷ Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. — Toshkent: "O‘zbekiston", 2021. — 464 b.

pedagogikada vatanparvarlik tushunchasi boshqa millatlarni inkor etish emas, balki ko‘pmillatli yagona Vatan ravnaqi uchun mas‘uliyatni his qilish sifatida talqin etiladi.

Tadqiqotimiz doirasida talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishning uchta asosiy pedagogik strategiyasi taklif etiladi:

Kognitiv-aksialogik strategiya. Ushbu strategiya talabalarning intellektual salohiyatini boshqa madaniyatlarni o‘rganishga yo‘naltiradi. Madaniy intellekt nazariyasiga ko‘ra, inson o‘zga madaniyat muhitiga tushganda o‘z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqara olishi kerak.⁷⁸ Bu jarayon o‘quv dasturlariga "Etnopedagogika", "Kross-madaniy menejment" kabi modullarni kiritilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Bunda talaba nafaqat faktlarni yodlaydi, balki madaniy farqlarning sabablarini tahlil qiladi.

Interaktiv-kommunikativ strategiya. Muloqot madaniyati faqat nazariya bilan shakllanmaydi. Buning uchun jonli muloqot maydonlari kerak. Milton Bennetning "Madaniyatlararo sezgirlikni rivojlantirish modeli" shuni ko‘rsatadiki, inson boshqa madaniyatni qanchalik ko‘p muloqot orqali o‘rgansa, undagi ksenofobiya darajasi shunchalik pasayadi.⁷⁹ Jamiyatda yaxshi imidj shakllantirgan madaniy muloqot klublari, xalqaro talabalar haftaliklari va xalqaro do‘stlik rezidensiyalarini tashkil etish interaktiv-kommunikativ strategiyaning asosiy mexanizmini shakllantiradi. Bu yerda talabalar loyiha usuli asosida birgalikda ijtimoiy topshiriqlarni bajaradilar.

Raqamli baynalmillatlik strategiyasi. Bugungi talaba raqamli avlod vakili hisoblanadi. Uning muloqotining katta qismi internet platformalarida kechadi. Shu sababli, "Raqamli tolerantlik" tushunchasi pedagogik strategiyaning ajralmas qismiga aylanishi lozim.⁸⁰ Ushbu mexanizm COIL (Collaborative Online International Learning) modellaridan foydalanishni taqazo etadi. Bu model talabalarga o‘z auditoriyasidan chiqmagan holda xorijiy OTM talabalari bilan virtual guruhlarda hamkorlik qilish imkonini beradi.

XULOSA VA ILMIY MUNOZARALAR

Oliy ta‘limning globallasuvi va xalqarolashuvi sharoitida talaba-yoshlarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish shunchaki axloqiy tarbiya jarayoni emas, balki zamonaviy mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini belgilovchi strategik omil hisoblanadi. Olingan natijalar va nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, millatlararo muloqot madaniyati — bu shaxsning o‘z milliy o‘zligini chuqur anglagan holda, o‘zga madaniyat qadriyatlarini

⁷⁸ Ang, S., & Van Dyne, L. Handbook of Cultural Intelligence: Theory, Measurement, and Applications. — M.E. Sharpe, 2008. — 432 p.

⁷⁹ Bennett, M. J. Becoming Interculturally Competent. In J.S. Wurzel (Ed.) Toward multiculturalism: A reader in multicultural education. — Newton, MA: Intercultural Resource Corporation, 2004.

⁸⁰ Safarov A.I. Raqamli ta‘lim muhitida talabalar tolerantligini rivojlantirishning pedagogik shartlari // Zamonaviy ta‘lim. — 2023. — №6. — B. 12-19.

hurmat qilishi, ularga nisbatan empatiya va bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lishi hamda global muhitda konstruktiv hamkorlikka kirishish qobiliyatidir.

Tadqiqot davomida ilgari surilgan kognitiv-aksialogik, interaktiv-kommunikativ va raqamli baynalminallik strategiyalari oliy ta‘lim muassasalarida millatlararo totuvlik muhitini tizimli ravishda takomillashtirishga qaratilgan. Ayniqsa, zamonaviy "raqamli avlod" (digital native) talabalari uchun virtual mobillik va kiber-tolerantlik tamoyillarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish, ularni nafaqat mahalliy, balki global miqyosdagi ko‘pmillatli mehnat bozoriga tayyorlashda eng samarali vosita ekanligi isbotlandi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, muloqot madaniyatini rivojlantirish faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki fanlararo integratsiya, "Madaniy muloqot" loyihalari va xalqaro hamkorlikning innovatsion modellarini qo‘llashni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta‘lim tizimida baynalminallik tamoyillarini kuchaytirish va taklif etilgan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish talabalarning etnomadaniy kompetensiyasini oshirish bilan bir qatorda, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va millatlararo totuvlikni saqlashning kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Kelajakda ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni sun‘iy intellekt muhitida madaniyatlararo muloqot etikasi va xalqaro raqamli ta‘lim platformalaridagi tolerantlik masalalari bilan bog‘liq holda davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va strategik hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF-5847-son. 08.10.2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF-5876-son. 15.11.2019.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2021. – 464 b.

II. Nazariy va pedagogik-psixologik adabiyotlar:

5. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: "O‘qituvchi", 2006. – 200 b.
6. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2008.

7. Karimov E.S. Millatlararo muloqot madaniyati: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2021. – 184 b.

8. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1996.

9. Saifnazarov I. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2013.

III. Xorijiy mualliflar va xalqaro tadqiqotlar:

10. Banks, J. A. Cultural Diversity and Education: Foundations, Curriculum, and Teaching (6th edition). – Boston: Pearson, 2015. – 380 p.

11. Bennett, M. J. Becoming Interculturally Competent. In J.S. Wurzel (Ed.) Toward multiculturalism: A reader in multicultural education. – Newton, MA: Intercultural Resource Corporation, 2004.

12. Deardorff, D. K. The SAGE Handbook of Intercultural Competence. – SAGE Publications, 2009. – 560 p.